International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service

Vol. 1 Issue 1 | pp. 7-10 **| ISSN:** XXXX-XXXX

Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

Classification Bases Of Financial Reporting Principles

Boronov Bobur Farxodovich *[1] , Abdurasulov Jamshidbek Axmad o'g'li[2]

1. Professor, Department of "Accounting and Audit," Samarkand Institute of Economics and Service (SamISI); Doctor of Economic Sciences (DSc)
2. Chief Accountant, "Saturn Metal Qayta Ishlash" LLC; Doctor of Philosophy in Economic Sciences (PhD)

* Correspondence: -

Abstract: The article examines the content, economic essence, and classification foundations of financial reporting principles. The principles applied in the preparation of financial statements are analyzed based on international standards and national regulatory documents. The study presents the scientific basis for classifying financial reporting principles into underlying principles, fundamental qualitative characteristics, and enhancing qualitative characteristics that improve the usefulness of financial information. Furthermore, the significance of the interrelationship between financial reporting principles in ensuring the reliability, comparability, and usefulness of financial information is substantiated.

Citation: Boronov Bobur Farxodovich. Classification Bases Of Financial Reporting Principles. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 7-10.

Received: 12th Aug 2026
Revised: 26th Sep 2026
Accepted: 8th Oct 2026
Published: 21th Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Keywords: financial reporting, financial reporting principles, conceptual framework, international standards, fundamental qualitative characteristics, financial information, comparability, reliability.

Mamlakatlar milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda hisob va hisobotlarni xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirda mamlakatlarda investitsion muhitni shakllantirish, iqtisodiyotning jahon andozalariga mos keladigan milliy modelini yaratish maqsadida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, moliyaviy hisobot garmonizatsiyasi, ularning muhim va ajralmas ob’ekti hisoblangan moliyaviy instrumentlar hisobining hozirgi holati, tasnifi, ularni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirishni takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlar alohida o‘ringa ega.

Soha olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida moliyaviy instrumentlar hisobining konseptual asoslari, uzoq muddatli va muddati uzaytirilgan debitorlik qarzlari, pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari, soliq aktivlari, hissali qatnashish asosida kiritilgan investitsiyalarni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ma’lum yutuqlarga erishib kelingan. Ammo, dunyo darajasida moliyaviy aktivlar hisobiga oid ilg‘or tajribalar hamda bu boradagi xalqaro standartlar tamoyillari rivojlanayotgan mamalakatlarda to‘liq joriy qilinishiga erishilgan emas. Bundan tashqari moliyaviy aktivlar hisobiga oid moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining (MHXS) mamlakatlar milliy iqtisodiyotida qo‘llashnilishi o‘ziga xos vazifalarni amalga oshirishni va yondashuvlarni talab etadi. Moliyaviy aktivlarni hisobga olishda muhim masalalardan biri ularning konseptual asoslari masalalari hisoblanadi. Moliyaviy aktivlarning konseptual asoslari – bu moliyaviy axborot foydalanuvchilar talablarini qondirish uchun moliyaviy aktivlarning maqsadi, vazifalari hamda tasnifini o‘zida mujassamlashtiradigan moliyaviy aktivlar tarkibi va elementlarini tavsiflovchi bo‘g‘indir.

Buxgalteriya hisobining konseptual asoslarida buxgalteriya hisobining prinsiplari masalalari eng muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunda[1] buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplariga uzluksizlik, ishonchlilik, ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi kiritilgan. Bizning fikrimizcha, prinsiplar ilmiy asosda tasniflanishi lozim. Prinsiplarni tasniflash ularning moliyaviy axborotlarni shakllantirishda roli va ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Bu borada xalqaro standartlar va qoidalarni o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari”[2] xalqaro standartiga muvofiq moliyaviy hisobot prinsiplari uch guruhga ajratilgan. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Asos bo‘luvchi prinsiplar. Bunga “faoliyatning uzluksizligi” prinsipi kiradi.

Moliyaviy hisobot shunday yo‘l qo‘yilish asosida tuziladiki, bunda kompaniya o‘z operatsion faoliyatini uzluksiz bo‘lgan davrda, ya’ni cheksiz bo‘lgan davrda davom ettiradi. Bunda kompaniya qachon o‘z faoliyatini tugatishi to‘g‘risida ehtimollar yuzaga kelmaydi. Faoliyatning uzluksizligi yo‘l qo‘yilishining mohiyati shundan iboratki, kompaniya o‘z faoliyatini tugatish yoki keskin darajada qisqartirish kabi holatlar nazarda tutilmagan hollarda davom ettiradi. Agarda kompaniya faoliyati tugatiladigan bo‘lsa u holda moliyaviy hisobot boshqa tamoyillar asosida tuziladi.

2. Fundamental sifat tavsifi prinsiplari. Bularga quyidagilar kiradi:

2.1. Uyg‘unlik yoki ahamiyatlilik. Moliyaviy hisobot axborotlari uyg‘un (ahamiyatli) bo‘lishi kerak. Axborotlar foydalanuvchilar taqdim etilayotgan axborotlar qachonki o‘tgan, hisobot davri va kelgusidagi hodisalarni baholash yoki o‘tgan baholashlarning to‘g‘riligini tasdiqlash hamda tuzatishlar kiritish bo‘yicha boshqaruv qarorlarning qabul qilinishida yordam bera olgan taqdirdagina uyg‘un bo‘ladi.

2.2. Haqqoniy va ob’ektiv taqdim etish. Hisobotlarda aks ettirilayotgan axborotlar huquqiy shakl uchun to‘ldiriladigan ma’lumotlar bo‘lmasdan, balki haqiqatda yuz bergan hodisa va jarayonlarning asl mohiyatini tavsiflay olgan taqdirdagina u haqqoniy va ob’ektiv bo‘ldi. Axborotlar haqqoniy bo‘lishi uchun ular to‘liq, neytral va aniq bo‘lishi talab etiladi.

3. Axborotlarning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari. Ularga quyidagilar kirishi ko‘rsatilgan:

3.1. taqqoslanuvchanlik;

3.2. tekshiruvga oidligi;

3.3. o‘zvaqtidalik;

3.4. tushunarlilik.

Halqaro standartda “Taqqoslanuvchanlik, tekshiruvga oidlik, o‘z vaqtidalik va tushunarlilik uyg‘un va haqqoniy taqdim etilayotgan axborotlarning foydaliligini oshiruvchi sifat tavsiflari hisoblanadi. Axborotlarning foydaliligini oshiruvchi sifat tavsiflari qaysidir iqtisodiy hodisalarni aks ettirishda qo‘llaniladigan ikkita usul bir xil darajada uyg‘un va haqqoniy aks ettirishni ta’minlagan hollarda ulardan foydalanish tavsiya etilayotganda ham yordam beradi[3] deb tavsif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun moddalari talablari asosida ishlab chiqilgan “Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilishning konseptual asoslari”da moliyaviy hisobotning prinsiplariga quyidagilar kiritilgan: “Hisoblash; Ikki yoqlama yozuv usulida hisobni yuritish; Uzluksizlik; Xo‘jalik operatsiyalarini, aktivlar va passivlarni pulda baholash; Ishonchlilik; Oldindan ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik); Mazmunining shakldan uzunligi; Ko‘rsatkichlarning qiyosiyligi; Moliyaviy hisobotning betarafligi; Hisobot davrida daromadlar bilan harajatlarning

[1] «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2016 йил 13 апрель, № ЎРҚ-404.

[2] Молиявий ҳисоботнинг концептуал асослари. https://www.pwc.ru/ru/training/assets/dipifr-dec2014-textbook.pdf. страница 0204

[3] https://nrm.uz/contentf?doc=470813_konceptualnye_osnovy_finansovoy_otchetnosti&products=1_vse_zakonodatelstvo _uzbekistana

muvofiqligi; Aktivlar va majburiyatlarning xaqiqiy bahosi; Tushunarlilik; Ahamiyatlilik; Muhimlik; Xaqqoniy va beg‘araz tasavvur etish; Tugallanganlik; Izchillik; O‘z vaqtidalik[4].

Ushbu qatordan ko‘rinib turibdiki, milliy konseptual asoslarda buxgalteriya hisobi prinsiplari qatorini keltirish va ularga tavsif keltirish bilan chegaralangan. Ularni asosiy prinsiplar, fundamental sifat tavsifi tamoyillari hamda axborotlarning foydaligini oshiruvchi prinsiplarga ajratilmagan. Bu esa, ularning o‘rnini belgilashda chalkashliklarga olib keladi. Masalan, uzluksizlik bu eng asos bo‘luvchi prinsip, shu bois uni boshqa prinsiplar bilan bir qatorda ko‘rsatib bo‘lmaydi. Uni ajratish kerak, uning roli va ahamiyatiga alohida ahamiyat qaratish kerak bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobining asos bo‘luvchi prinsiplari uning negizini tashkil etadi. Ushbu prinsiplarga amal qilmaslik natijasida boshqa prinsiplarning qo‘llanilishi ham mumkin bo‘lmay qoladi. Fundamental sifat tavsifi prinsiplari moliyaviy axborotlarning sifatini ta’minlovchi prinsiplardir. Ushbu prinsiplarning qo‘llanilishi moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan axborotlarning ishonchliligi va uyg‘unligini ta’minlaydi. Jadvalda aks ettirilgan uchinchi guruh prinsiplar axborotlarning foydaliligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu prinsiplar ta’minlangan hollardagina axborotlar foydalanuvchilar uchun foydali bo‘ladi. Hisoblash metodi va kapitalni qo‘llab quvvatlash konsepti o‘ta muhim axborotlarni shakllantirish hamda foydani aniqlashda umumtan olingan tartibni joriy qilinishini ta’minlaydi. Axborotlarni o‘lchash, tan olish, baholash va hisob va hisobotlarda aks ettirishda qo‘llaniladigan prinsiplar axborotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlaydi, ularning foydalilik darajasini oshiradi.

Ushbu prinsiplarning jadvalda keltirilgan tasnifi moliyaviy axborotlarni shakllantirishdagi o‘rni, ularning bir-biriga bog‘liqligini aks ettirgan. Masalan, axborotlarning foydaliligini oshirishga yo‘naltirilgan prinsiplar fundamental sifat tavsifi tamoyillarini amal qilinishini ta’minlaydi. Asos bo‘luvchi prinsiplar va asosiy konsepti barcha prinsiplarning ustuni hisoblanadi. Taklif qilingan tasnif moliyaviy hisobotning konseptual asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi buyrug‘i. 2022 yil 9 dekabr. 3400-son
2. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining “Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i. 2026 yil 10 iyun. 3854-son.
3. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug‘iga 1-ILOVA.
4. 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” BHXS. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug‘iga 2-ILOVA.
5. Xolmatova N. Moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish masalalari (buxgalteriya balansi misolida) // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2026. III son - mart. 411-422-b.
6. Maxmudov A.N. Sanoat korxonalarida harajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlash metodologiyasini takomillashtirish istiqbollari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. -2022, № 3, may-iyun (№ 00059).
7. Boronov B.F. Korxonalar moliyaviy aktivlari hisobini takomillashtirish. –T.: TMI, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2021, 150 b.
8. Boronov, Bobur Farxodovich. "Yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish harajatlari hisobining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish." *ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022* (2022): 202284

[4] “Молиявий ҳисоботни тузиш ва тақдим қилишнинг концептуал асослари” http://lex.uz/docs/828557

9. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "Farmasevtika korxonalarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari." *FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY* 1.1 (2025): 282-289
10. Boronov, B. (2019). THEORETICAL AND CONCEPTUAL BASES OF ACCOUNTING FINANCIAL ASSETS. *International Finance and Accounting*, *2019*(4), 6.